



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI



MAVZU: ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT MAVZUSINING O'RGANILGANLIK DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARI

Muallif: i.f.f.d. (PhD), A.Sh. Mamatov

<https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim>

Toshkent-2026 >

KIRISH

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishning asosiy maqsadi tanlangan mavzu bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar, nazariy yondashuvlar, metodlar va natijalarni tizimli o'rganish hamda tadqiqot mavzusining qay darajada o'rganilganligini aniqlashdan iborat. Bu jarayon tadqiqotchiga ilmiy muammoning hozirgi holatini baholash, mavjud ilmiy bo'shliqni aniqlash va o'z tadqiqotining dolzarbligi hamda ilmiy yangiligini asoslash imkonini beradi.

Amaliyotda ko'plab tadqiqotchilar adabiyotlar sharhini mualliflar fikrini ketma-ket bayon qilish bilan cheklaydilar. Aslida esa ilmiy adabiyotlar tahlili — mualliflarni sanab o'tish emas, balki ularning ilmiy natijalarini qiyosiy tahlil qilish, baholash va umumlashtirish jarayonidir.



ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILINING MOHIYATI

Ilmiy adabiyotlar tahlili dissertatsiyaning nazariy va metodologik asosini shakllantiruvchi muhim bosqich hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud ilmiy bilimlarni tizimli ravishda o'rganish, ularni qiyoslash va ilmiy baholashdan iborat.

Ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- ☒ Mazkur mavzu bo'yicha qanday tadqiqotlar olib borilgan?
- ☒ Qanday ilmiy natijalarga erishilgan?
- ☒ Qaysi metod va yondashuvlardan foydalanilgan?
- ☒ Mavjud tadqiqotlarning kuchli va zaif tomonlari nimalardan iborat?
- ☒ Qaysi masalalar hali yetarli darajada o'rganilmagan?






ELEKTRON ILMIY BAZALAR



ILMIY MANBALARNI TANLASH MEZONLARI

Ilmiy adabiyotlar tahlilining sifati foydalanilgan manbalarning ilmiy qiymati, ishonchliligi va tadqiqot mavzusiga mosligiga bog'liq. Shu bois tadqiqotchi manbalarni tanlashda ularning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, nufuzli nashrlarda chop etilgani va ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilganligiga e'tibor qaratishi lozim. Tadqiqotlarda, avvalo, ekspertiza (peer review)dan o'tgan, xalqaro ilmiy bazalarda indekslangan hamda yuqori ilmiy ishonchlilikka ega maqolalar, monografiyalar va boshqa ilmiy manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi



Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda sun'iy intellektning o'рни


“

Sun'iy intellekt ilmiy adabiyotlarni izlash, saralash va dastlabki tahlilni tezlashtirib, mavzuga mos maqolalarni topish, ularni qisqacha umumlashtirish hamda manbalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi.

Biroq sun'iy intellekt tadqiqotchining ilmiy tahlili va xulosalarini almashtira olmaydi. Sun'iy intellekt natijalari ilmiy manbalar asosida tekshirilishi, ularning ishonchliligi baholanishi va yakuniy xulosalar tadqiqotchi tomonidan mustaqil shakllantirilishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarni izlash va saralash bosqichlari

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar odatda ko'plab maqolalarni yig'adilar, biroq ularning faqat oz qismidan tadqiqotda foydalanadi. Shu bois ilmiy adabiyotlarni ko'p to'plashdan ko'ra, ularni tadqiqot mavzusiga mosligi va ilmiy qiymati asosida to'g'ri saralash muhimroq hisoblanadi.



Kalit so'zlarni aniqlash

Tadqiqot mavzusiga mos asosiy atamalar va ularning zarur hollarda ingliz tilidagi muqobil variantlarini shakllantirish.

Ilmiy bazalardan foydalanish

Scopus, Web of Science, Google Scholar kabi ilmiy bazalarda kalit so'zlar va mantiqiy operatorlar (AND, OR, NOT) yordamida qidirish.

Manbalarni saralash

Topilgan manbalarning mavzuga mosligi, nashr yili, jurnal nufuzi va metodologiyasi asosida baholash.


Manbalarni chuqur tahlil qilish

Saralangan manbalar batafsil o'rganilib, tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

ILMIY ADABIYOTLARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI

Ilmiy adabiyotlarni o'qish va tahlil qilish bir xil jarayon emas. O'qish ma'lumot olishga xizmat qilsa, tahlil qilish ilmiy xulosa va asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

HAR BIR ILMIY MANBANI QUYIDAGI MEZONLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH MAQSADGA MUVOFIQ:





ILMIY ADABIYOTLARNI TAHLIL QILISHDA TAVSIYA ETILADIGAN KETMA-KETLIK

Dissertatsiyada ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va mavzu dolzarbligini asoslashda manbalarni izchil ketma-ketlikda bayon etish tavsiya etiladi. Bunda, avvalo, mahalliy olimlar, so'ng MDH davlatlari, Yevropa va boshqa xorijiy olimlar tadqiqotlari tahlil qilinadi. Har bir guruh bo'yicha ilmiy natijalar umumlashtirilib, tadqiq etilmagan jihatlar (research gap) aniqlanadi. Aynan shu ilmiy bo'shliqlar tadqiqot mavzusining dolzarbligi va yangi ilmiy yechim zaruratini asoslaydi.



O'RGANILGANLIK DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARI

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi — bu tanlangan ilmiy muammo bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarning holatini baholashdir. Uning asosiy maqsadi mavzuning dolzarbligini asoslash, ilmiy bo'shliqni (research gap) aniqlash va tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilashdan iborat.

Ko'pincha tadqiqotchilar bu bo'limda faqat mualliflar va ularning ishlarini sanab o'tish bilan cheklanadilar. Aslida esa mavjud tadqiqotlar tahlil qilinib, o'rganilgan va yetarli tadqiq etilmagan jihatlar aniqlanishi lozim.

Mezon	Mazmuni
Dolzarblik	Mavzuning ilm-fan va amaliyot uchun ahamiyati.
Tadqiqotlar soni	Mavzu bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar ko'lami.
Ilmiy qamrov	O'rganilgan va yetarli tadqiq etilmagan jihatlar.
Metodologiya	Qo'llanilgan usullar va ilmiy yondashuvlar.
Ilmiy natijalar	Erishilgan asosiy ilmiy xulosalar va ularning hissasi.
Ilmiy qarashlar	Mavjud bahsli va qarama-qarshi yondashuvlar.
Amaliy ahamiyati	Natijalarning amaliyotda qo'llanilish darajasi.

TADQIQOTCHI UCHUN METODIK TAVSIYALAR

Adabiyotlar sharhini yakunlashdan oldin quyidagi savollarni tekshiring:

- ☒ Xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar yetarli darajada o'rganildimi?
- ☒ So'nggi 5–10 yildagi hamda klassik ilmiy manbalar tahlil qilindimi?
- ☒ Mualliflarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindimi?
- ☒ Mavzuning o'rganilganlik darajasi ilmiy mezonlar asosida baholandimi?
- ☒ Ilmiy bo'shliq (research gap) va tadqiqot zarurati aniq asoslandimi?
- ☒ Adabiyotlar sharhi umumlashtirilgan ilmiy xulosa bilan yakunlandimi?



Agar barcha savollarga “**Ha**” deb javob berish mumkin bo'lsa, adabiyotlar sharhi metodologik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan hisoblanadi.

XULOSA

Ilmiy adabiyotlar tahlili PhD va DSc dissertatsiyalarining nazariy hamda metodologik asosini shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Uning asosiy vazifasi mavjud ilmiy tadqiqotlarni tizimli o'rganish, qiyosiy tahlil qilish, mavzuning o'rganilganlik darajasini baholash va tadqiqotning dolzarbligini asoslashdan iborat.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi manbalar soni bilan emas, balki ularning ilmiy sifati, metodologiyasi va mavjud ilmiy bo'shliqni aniqlash darajasi bilan belgilanadi. Shu bois adabiyotlar sharhi oddiy manbalar tavsifi emas, balki ilmiy tahlil va umumlashtirish jarayoni bo'lishi lozim.

Ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish va umumlashtirish tadqiqotchiga mavzuning hozirgi ilmiy holatini xolis baholash hamda tadqiqotning dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini ishonchli asoslash imkonini beradi.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

<https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim>

